

ADABIYOTDA AYOL OBRAZI

ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В ЛИТЕРАТУРЕ

IMAGE OF WOMEN IN LITERATURE

Qosimxon Jamolov

*FarDU magistranti*

**Annotatsiya:** *mazkur maqolada ayol obrzining adabiyotga kirib kelishi hamda o'zida qator funksiyalarni birlashtirishiga e'tibor qaratilgan. Ayol bir vaqtning o'zida ona, opa, singil, yor kabi obrazlarni musassamlashtirgani bilan alohida ahamiyatga ega.*

**Аннотация:** *данная статья посвящена внедрению образа женщины в литературу и интеграции ряда функций. Женщина имеет особое значение, так как она одновременно воплощает в себе такие образы, как мать, сестра, сестра и друг.*

**Abstract:** *this article focuses on the introduction of the image of a woman in literature and the integration of a number of functions. A woman is of particular importance as she simultaneously embodies images such as mother, sister, sister, and friend.*

**Kalit so'zlar:** *ayol, ona, obraz, genezis, tadrijiy rivojlanish, badiiy adabiyot.*

**Ключевые слова:** *женщина, мать, образ, генезис, постепенное развитие, вымысел.*

**Key words:** *woman, mother, image, genesis, gradual development, fiction.*

Ayolsiz hayot bo'lmas ekan, adabiyotda ayollar qatnashmagan asar ham yo'q. Zero, "Ayol bo'lmasa, adabiyot bo'lmas edi. Adabiyot avvalo ayolga atab, ayol uchun, uning ko'nglini olish, dilidagini bilish, ayol degan xilqat ne o'zi - shuni anglash uchun yaralgan. Abdulla Qahhor aytganidek, qushning ham erkagi sayraydi. So'z san'ati avvalboshi er kishining ijodidir, demak, erkakni qiziqtirgan bosh masala adabiyotning asosiy muammosi bo'ladi. Erkakni esa, tabiiyki, eng avvalo ayol qiziqtiradi. Shu bois, adabiyotning asosiy qahramoni, bosh mavzui – ayoldir" [1. 47]. Darhaqiqat, deyarli barcha qalam mahsullarida ayol obrazi asosiy o'rinni egallaydi. Umuman olganda, asli hayot erkak va ayol munosabatlari ustiga qurilgan. U istalgan jihatdan bo'lsin, ana shu ikki insonning munosabati zamirida mavjud bo'ladi. Adabiyot esa inson va uning qalbini o'rganuvchi fandir. Aytish mumkinki, adabiyotda turli mavzu va qarashlar ko'p, ammo ularning tag zamirini qarajak, barchasi ayol va uning tevaragida aylanadi. Hatto mavzusi hayotni anglashga qaratilgan asarlarning ham mag'zi birinchi navbatda, ayolni anglashga qaratiladi. "To'g'ri, so'z san'atida ota-onaga muhabbat, tabiat go'zalligi, halollik, bolalarni sevish, yovlarga nafrat... kabi o'nlab mavzular bor, bularning har biri ming yillardan beri yuzlab xalqlarning so'z san'atida chuqur, har taraflama ishlangan. Ammo baribir, ularning hech biri

ayol tasvirichalik mavqe kasb etmaydi. Shu ma'noda, insonshunoslik bo'lmish adabiyot birinchi navbatda ayolshunoslik, ya'ni ayolni o'rganish, inkishof etish ilmidir. Kuzatsak, eng qadimgi asarlar ham ayolga bag'ishlangan, ular konfliktini ayol va unga aloqador narsalar tashkil etadi. Hatto, aytish mumkinki, adabiyot taraqqiyoti ayol mavzuining badiiy tadqiqi, uning teranlasha borishi bilan chambarchas bog'liq" [1.47]. Shunday ekan, bu mavzuni tadqiq etish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ayol obrazining adabiyotda mavjud bo'lishi xalq og'zaki ijodining qadimiy davrlariga borib taqaladi. Bu ayniqsa, diniy hikoyatlarda yorqinroq namoyon bo'ladi. Islomgacha bo'lgan davrda ham, undan so'ng ham ayol kishi masalasiga alohida e'tibor beriladi. Darhaqiqat, islomgacha bo'lgan davrda ayollar, pari kampirlar obrazi mavjud bo'lsa, Islom dini jamiyatida esa eng katta hurmatga loyiq zot bu turmush ko'rgan ayol, ya'ni ona hisoblanadi. Bu Payg'ambar alayhissalomning "Jannat onalar oyog'i ostidadir", degan hadislarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, ayol masalasi hech bir davrda quyi o'ringa tushgan emas, doimo bosh masala hisoblanadi. Chunki, insoniyat ibtidosidan boshlab odam bolasini ona dunyoga keltiradi va atrof-olam bilan tanishtiradi. Shuning uchun deyarli ko'p hikmat, rivoyatlarda asosiy obraz shaklida ayollar turadi. Ulardan eng qadimiylari Umay ona, Momo Havo obrazlaridir. Umay ona qadimgi turkiy qavmlarning onasi, yaratuvchisi hisoblanadi. "Bu kult onalarni, bolalarni himoya qiluvchi iloh. Qadimgi turkiylarda Tangri (xudo)ning umr yo'ldoshi deb tasavvur qilingan" [2. 17]. Darhaqiqat, bu narsani Mahmud Koshg'ariy ham o'zining "Devon"ida yozib o'tadi. Umayni yo'ldosh, ya'ni bolaga yopishib yuruvchi narsa deya ta'riflaydi.

Demak ona obrazi, ayol qiyofasi, turmush o'rtoq shaklida ham azaldan mavjud bo'lgan. Shu tariqa ayol, ona obrazlari afsona va rivoyatlardan o'sib, shakllanib kelgan. Yuqoridagilar badiiy adabiyot namunalari bo'lib, badiiy talqinda kirib kelsa, o'rta asr tarixiy asarlarida ham afsonaviy ayol yoki ona obrazlariga murojaat etilgan. Buni Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" asarida ko'ramiz. Asarning ikkinchi bobida "turk-mo'g'ul xalqlarining afsonaviy onasi Alanquva va undan tarqalgan avlod" [3.321] haqida so'z boradi. Bitta katta bob onaga bag'ishlangan. Bu narsani taniqli adib Pirimqul Qodirov o'zining "Yulduzli tunlar. Bobur" tarixiy romaniga ham mohirona olib kiradi. Asarga Bobur nutqi orqali

" – Ana shu Yulduzxonning nevarasi – afsonaviy ayol Alanquva qurlos urug'idan ekan. Qurlos barlosga qon-qarindosh. Nomi ham uyqash. Men buni Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" kitobidan o'qidim. Ilohiy ruhdan homilador bo'lib o'g'il tuqqan Alanquva turkiy qavmlarning afsonaviy onasi sanalar ekan" [4.178], shaklida kiritiladi.

Momo Havo esa islom va uning aqidalarida kirib kelgan. U shayton hiylasi tufayli Odam Atoga ta'qiqlangan mevani yedirib qo'yadi. Bunda ayol obrazining o'ziga xos jihatlari namoyon bo'ladi. Ya'ni, Odam Ato bilan munosabati, unga o'z ta'sirini o'tkaza olishi va shu bilan birga uning ajralmas maslakdoshi bo'lishi ko'rsatiladi. Bu leytmotiv dunyo dinlarining deyarli barchasida mavjud.

Xalq og'zaki ijodiyoti janrlarining har qaysida ayol obrazi bor. Ertaklarda asosiy o'rinda ayol obrazi turadi. Bunda ayollarning turli jihatlari, xil-xususiyatlari, xarakterlari ochiladi. Ularning ba'zilarida qalbi mehrga to'la, farzandi uchun jonini beruvchi, samimiy ona qiyofasida ko'rsak, ayrimlarida qahrli, makkor, o'z manfaati uchun hech narsadan qaytmaydigan yovuz qiyofada ko'ramiz. Lekin e'tiborli jihati shundaki, ertaklarning ham asosiy qahramonlari ayollar hisoblanadi. Bundan tashqari, xalq og'zaki ijodining gultoji bo'lmish dostonlarda ham ayol obrazi va uning qiyofasi alohida qabariq holatda tasvirlanadi. O'zbek xalqining mumtoz dostoni – "Alpomish"da Barchinoy, Qaldirg'ochoyim obrazlari ana shunday obrazlar hisoblanadi. Dostonda ayol obrazining badiiy talqini ham asosiy o'rinni egallaydi. "Alpomish" dostonida ayollarga xos bo'lgan fazilatlar, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni Barchin obrazi orqali nozik badiiy bo'yoqlarda go'zal va ehtirosli tasvirlangan" [5.53]. Nafaqat Barchin obrazi orqali balki, Qaldirg'ochoyim obrazi orqali ham ayollarning mardligi, qat'iyatligi, va'daga vafoli bo'lish kerakligi, or-nomus masalasi yorqin ifodasini topgan. Ularning aql-farosati, donoligi namoyon etiladi. Barchinning ayol, ona pozitsiyasida to'g'ri qaror qabul qila olishi ham diqqatga sazovor. Dostonda "Barchin alplarga qarshi vafo, sadoqat, insoniy huquq, elat nomi bilan jang qilib, qalmoq alplarining ma'naviy jihatdan tubanliklarini isbot qiladi. Barchinning o'z erki, huquqi uchun mardlik va jasurlik ko'rsatishi alp qizning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy mavqeining aks etishidir. Chunonchi, "Alpomish" dostonidagi har bir voqea, har bir obraz, o'z xususiyatlariga ko'ra, xalqning ma'naviy barkamolligini, uning teran va keng miqyosli dunyoqarashini aks ettiradi, ayolning sadoqatli muhabbatini tarannum etadi" [5.53]. Birgina bu dostonida emas, barcha xalq dostonlarimizda bu jihatlar mushtaraklik kasb etadi, asosiy leyitmotiv hisoblanadi.

Ayol, ona obrazi yuqoridagilarda og'zaki aks etib, bugungi kungacha yetib kelgan bo'lsa, yozma adabiyotda ham ahamiyatli o'rinni ishgo'ol etadi. Uning kurtaklari ilk turkiy yozma adabiyotning namunasi bo'lmish O'rxun-Enasoy bitiklarda uchraydi. "Moyin Chur otasi Kul dono xoqon bilan birga turk xoqonligi qo'shinini itoat ettirganini hikoya qiladi. Qo'y yili (745-yili) O'zmish tiginni asir olgani va uning xotinini o'ziga olganini hikoya qilar ekan, uch qarluq xalqi baribir, Moyin churga itoat etmasdan, g'arbiy turk xoqonligiga qo'shilib ketgani haqida xabar beradi" [2.62]. Bitiktosh xuddi To'nyuquq bitigida To'nyuquq og'zidan yozilgani kabi Moyin churning shaxsan o'zi tomonidan hikoya qilinadi. Jang tafsilotini keltirish mobaynida dushmanining xotiniga ham to'xtalib o'tishi o'sha davr jamiyatidagi ayollarning o'rnidan, mavqeidan darak beradi. Shu tariqa ayollar alohida obraz sifatida shakllanib kelgan. Bundan tashqari, XI-XIII asrlar adabiyotida ham mavjud bo'lgan, ammo u avvalgi afsona va rivoyatlarning negizida ekanligi bilan xarakterlanadi.

XV- XVI asr adabiyotiga kelib ayol obrazi asarning asosiy qahramoni darajasiga ko'tarila bordi. Bu davrda obrazlar mukammallashti va asardagi ijodkorning badiiy g'oyasini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Alisher Navoiyning ijodida, tarixiy asarlarida, "Xamsa" dostonlarida ko'ramiz. "Xamsa"ning ilk dostoni "Hayrat

ul-abror”da keltirilgan 20 hikoyatning ko’p qismida ayol obraziga duch kelsak, keyingi dostonlarda ular bosh qahramon darajasiga ko’tariladi. Sharq mumtoz adabiyotining ulkan an’anasiga aylangan xamsanavislikda ayol obrazi bosh qahramonlar sirasiga kiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Isomiddinov Z. Ikki ayol.//Tafakkur,2007,4-son
2. Rahmonov N. O’zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti-2017.
3. Aхмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Тошкент, “Ўқитувчи”-1994.
4. Qodirov P. Yulduzli tunlar.Bobur. Toshkent, “Sharq”-2016,
5. Yo’ldosheva S. “Alpomish” dostonida ayollar obrazi.//O’zbek tili va adabiyoti, 2015,2-son/53-bet.

#### REFERENCE:

6. Sabirdinov, A. . (2021). ASKAR KASIMOV IN THE UZBEK POETRY OF THE XX CENTURY THE ROLE AND IMPORTANCE OF CREATION. Конференции, 1(2).
7. Guzalkhan, M. (2020). The image of a creative person in the poetry of Erkin Vohidov. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11).
8. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In Конференции
9. Abdurashidovich, K. A. (2018). Motivation and National Character of Foolishness in Uzbek Literature. ANGLISTICUM. Journal of the AssociationInstitute for English Language and American Studies, 7(4), 47-51.
10. Qayumov, A. (2018). Creating of a national character through means of literature. Theoretical & Applied Science, (1), 235-240.
11. Kayumov, A. A., & Isakova, J. B. (2022). DESCRIPTION OF A CHILD'S IMAGE IN UZBEK LITERATURE. Oriental Journal of Social Sciences, 2(02), 115-122.
12. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 3, 9-13.
13. Jo’rayev, H., & Anvarova, D. (2022). Investitsiya, investitsion muhit, jozibadorlik, investorlar huquqi, Investitsiya kodeksi, investitsion ombdusman, moliyalashtirish manbalari, to ‘g ‘ridan-to ‘g ‘ri investitsiyalar, mahalliy investitsiya. RESEARCH AND EDUCATION, 1(2), 329-332.
14. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHİYATIDAGI EVRILISHLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 1318-1322

15. Jo'rayev, H. A., & qizi Maxamadjonova, S. R. (2022). SHEKSPIR TRAGEDIYALARIDA AFORIZMLAR. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(7), 452-454.
16. Dehqonova, Maxsuma, & Qosimov, Iqboljon (2022). OYBEK DOSTONLARIDA MAVZULAR XILMA-XILLIGI VA OBRAZLAR TASVIRI. International scientific journal of Biruni, 1 (2), 317-322.
17. Dehkonova, M. S. (2020). OYBEK'S POETRY THROUGH ANALYSES OF REPRESENTATIVES OF OYBEK STUDIES SCHOOL. Theoretical & Applied Science, (2), 13-17